

**TUG`MA YURAK NUQSONI.**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17282588>

*Kokand University Andijan Branch*

*DI 25-30-guruh talabasi*

**Isakov Shaxriyorbek**

*Ilmiy rahbar: Nazokat Nabijonova*

**Abstrakt**

Ushbu maqola tibbiyot sohasida eng dolzarb yo`nalishlardan biri bo`lgan, chaqaloqlarda ko`p uchraydigan yurak qon tomir kasalliklaridan biri bo`lgan tug`ma yurak nuqsoni kasalligiga bag`ishlangan. Ushbu kasallik dunyo miqyosida mutaxassislar tomonidan o`rganib kelinmoqda va uning kelib chiqish sabablari, belgilari, diagnostikasi va davolash usullari bo`yicha salmoqli natijalarga erishib kelinmoqda.

**Abstract**

This article is dedicated to congenital heart disease, which is one of the most urgent directions in the field of medicine and is one of the most common cardiovascular diseases in babies. This disease is being studied by specialists on a global scale and significant results are being achieved in terms of its causes, symptoms, diagnosis and treatment methods.

**Key words**

Congenital heart defect, environmental conditions, fetal development, USE, surgical practice, diagnosis of the disease.

**Kalit sozlar**

Tug`ma yurak nuqsoni, ekologik vaziyatlar, homilaning rivojlanishi, UTT, jarroxlik amaliyoti, kasallik diagnostikasi.

Hozirgi davrda ilm-fan, texnika va boshqa sohalarda juda katta ijobiy o'zgarishlar va yuksalishlar kuzatilmoqda. Barcha sohalarda bo'lgani kabi, tibbiyot sohasida ham katta natijalarga erishilmoqda. Tibbiyot sohasida yetakchi o'rinni egallagan AQSh, Germaniya va Hindiston kabi mamlakatlar qatori O'zbekistonda ham tibbiyotning barcha yo'nalishlari bo'yicha sezilarni natijalarga erishilmoqda. Jumladan, inson tana azolari orasida juda muhim o`rin egallovchi yurak sohasi bilan bog`liq kasalliklarni o`rganish, diagnostika qilish va davolash usullari bo`yicha yurtimizda juda katta ilmiy-amaliy tajribaga ega bo`lgan tibbiyot markazlari yaratildi. Ular orasida tug`ma yurak nuqsoni kasalligi bo`yicha

nafaqat poytaxtda, balki viloyatlarda ham bu soha bo'yicha yetuk mutaxassislar tayyorlash yo'lga qo'yilgan.

Tug'ma yurak nuqsoni yurak qon tomir kasalligi hisoblanib u tug'ulish paytida mavjud bo'lgan yurak va qon tomirlaridagi kasallikdir. O'rganishlar shuni ko'rsatadiki, dunyo bo'yicha tug'ilgan har 1000 ta chaqaloqdan 8-10 tasi tug'ma yurak nuqsoni bilan tug'ulmoqda. Ularning aksariyatida 1 yoshgacha bo'lgan muddatda jarroxlik amaliyoti qilinishi kerak. Hozirda Respublikamizning 8 ta tibbiyot muassasalarida ushbu kasallik bilan tug'ulgan chaqaloqlarning jarroxlik amaliyotlari o'tkazilmoqda.

Tug'ma yurak nuqsoni paydo bo'lishining asosiy sabablari: homiladorlik paytida onada bo'ladigon noqulay ekologik vaziyatlar, onadagi virusli infeksiyalar, homilani olib yurish davrida alkagol va ayrim dori preparatlarini istemol qilish, onaning yoshi 18 yoshdan kichik, 35 yoshdan katta bo'lishi va boshqalar. Homilada yurak nuqsoni, odatda, ona qornida 8 haftalik rivojlanish davrida shakllanadi. Bunday og'ir kasalliklar homilador ayollarda 3 marta, homiladorlikning har uch oyida o'tkaziladigon UTT da aniqlanishi mumkin.

Tug'ma yurak nuqsonining asosiy belgilari turli ko'rinishlarda namoyon bo'ladi: terining ko'kimtiriligi, yurak yetishmovchiligi, yurakdagi shovqin, nafas olishdagi yetishmovchiliklar, jismoniy rivojlanishdan orqada qolish, rangparlik, yurak urushining buzulishi shular jumlasidandir. Yurak nuqsoni chaqaloqlarda tug'ulgan zahoti paydo bo'lishi, yoki uzoq vaqtgacha sezilmay turishi mumkun. Chaqaloq hayotining birinchi yilida tug'ma yurak nuqsonlarini tashxislash: Elektrokardiografiya (EKG), exokardiyografiya (EXOKG), Rentgen, yurakni MRT qilish orqali amalga oshiriladi. Tug'ma yurak nuqsoni homilada, ona qornidagi rivojlanish davrida ham aniqlash mumkun. Tug'ma yurak nuqsonini davolash ko'pincha jarroxlik amaliyotini talab qiladi. Operatsiyadan oldin nuqson turini aniq belgilash va eng maqbul davolash usulini tanlash uchun, bemorni sinchkovlik bilan instrumental va klinik tekshiruvdan o'tkazilishi zarur.

Olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, tug'ma yurak nuqsonlari bilan tug'ilishga olib keluvchi sabablar xilma-xil bo'lib, ular orasida infeksiyon kasalliklar ko'p uchraganligi aniqlandi. Undan tashqari, onalarni bilib bilmay dori vositalarini qabul qilishlari, yosh oilaviy muhitning oqibatida uchraydigangan stress xolatlar

ham bu kasallikni sababchisi bo'lganligi ma'lum bo'ldi. Kelgusida xomilador onalar o'rtasida ushbu xolatlarni oldini olish bo'yicha targ'ibot ishlarini olib borish muhimligi kasallikning kamayishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:**

1. D.X. Mamatkulova „Yurak tug`ma nuqsonlari.“ Samarqand 2022.
2. T.A.Daminov, B.T.Xolmatova „Bolalar kasalliklari.“ Toshkent 2010.
3. G`.O.Haydarov, Sh.H.Ermatov „Ichki kasalliklar.“ Toshkent 2002.
4. A.S.Sulaymonov „Bolalar xirurgiyasi.“ Toshkent 2000.